



unicef 
Har bir bola uchun

Nogironligi bo'lgan bolalarning

ta'lim olish huquqi



Nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqi

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2024

UO'K: 34:030-053.5

B 43

KBD: 67YA2

Nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqi. – Toshkent.
“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2024-y.– ** b.

ISBN

UO'K: 34:030-053.5

B 43

KBD: 67YA2

Hurmatli o'quvchilar, ushbu qo'llanma yordamida nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqi haqida qiziqarli, siz uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin.

Unutmang ta'lim olish huquqiga oid bilimlar sizga doim kerak bo'ladi.

ISBN

© “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2024-y.

Nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqi tushunchasi

Hurmatli o'quvchilar, barcha bolalar ta'lim olish huquqiga ega. Ta'lim olish uchun ularga davlat sharoitlar yaratadi. Shuningdek nogironligi bo'lgan bolalarga ham alohida ta'lim sharoitlari yaratiladi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING 57-MODDASIDA

Davlat bollar uchun ularning ta'lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratadi va kafolatlaydi.



Bundan tashqari, bolalarning ta'lim olishi huquqlari borligi "Bola huquqlari to'g'risida"gi va "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyalarda hamda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlarda keltirib o'tilgan.


Ta'lim olish huquqi nima uchun kerak?

Hurmatli bolalar, ta'lim olish huquqi odamlar uchun zarur bo'lib, ularga bilim va ko'nikmalar olish, shaxsiy rivojlanish uchun imkoniyat beradi. Bu huquqning amal qilishi uchun kerakli sharoitlar, masalan, har bir shaxs uchun o'qish shartlari, nogironligi bo'lgan bolalar uchun sharoit yaratilishi qonun va qoidalar asosida belgilanadi.

Ta'lim olish huquqi bollarga kelajakda o'zi istagan kasb va hunarga ega bo'lishi uchun albatta ko'maklashadi. Bu ularga kelajakda yaxshi yashashlari va jamiyatda o'z o'rnini topishga yordamlashadi.



Demak, barcha bolalar o'zlarining ta'lim olish huquqlarini yaxshilab tushunishi va bilib olishlari zarur ekan.



Hurmatli bolalar, qo'llanma yordamida siz bilan nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqi, ta'lim olish kafolatlari, inklyuziv ta'lim, ta'lim berish shakllari va sharoit yaratish, ta'lim olishi uchun imtiyozlar, ta'lim olishiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik va ta'lim olish huquqlari buzilganda qayerga murojaat qilish kerakligi kabi mavzularni o'zlashtirib olamiz.

Nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqi


Qadri bolalar, barcha bolalarning ta'lim olish huquqi bo'lganidek, nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olishi va o'z qobiliyatini rivojlantirishi huquqi bor.



Bolalarning nogiron bo'lishi ularning ta'lim olishiga **to'siq bo'lmaydi.**




Nogironligi bo'lgan shaxslarning **ta'lim olishiga ko'maklashiladi** va shart-sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, nogironligi bo'lgan insonlarning bog'chalarda, maktablarda, kollej va litseylarda, oliy ta'lim muassalarida (universitetlarda) ta'lim olishi ta'minlanadi.




Bolalar ta'lim olishni boshlashdan oldin maxsus tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi va mana shu tibbiy ko'rik komissiyasining xulosalari asosida ular umumiy maktablarda (inklyuziv ta'lim), maxsus maktablarda yoki alohida o'zlarining uylarida o'qitilishlari mumkin. Agar nogironligi bo'lgan bolalarni umumiy maktablarda yoki maxsus maktablarda o'qitishning imkoni bo'lmasa ular o'zlarining uylarida o'qitilishi mumkin. Bunda nogironligi bo'lgan bolalarni uyda o'qitish pulini Davlatning o'zi to'lab beradi.

Nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olish kafolatlari

Hurmatli bolalar, nogironligi bo'lgan bolalar uchun ta'lim bepuldir. Bu degani nogironligi bo'lgan bolalar maktablarda tekin o'qishadi.



Nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus **o'quv qo'llanmalar va adabiyotlar, surdotarjimonlar** xizmatlaridan foydalanish Davlat hisobidan amalga oshiriladi.



Davlat nogironligi bo'lgan bolalar uchun **inklyuziv ta'lim** shaklida ta'lim olishga sharoit yaratadi.



Nogironligi bo'lgan bolalarni **o'qitish sifatini** esa davlatning o'zi tekshiradi.

Nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lim berish shakllari va sharoit yaratish

Qadri bolalar, nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lim berish quyidagi shakllar orqali amalga oshiriladi:

- Umumiy talim muassasida o'qitish (maktablarda);
- ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'qitish;
- bollarining uylarida o'qitish;
- maxsus guruhlarda o'qitish;
- maxsus sinflarda o'qitish.

Nogironligi bo'lgan bolalarni mehnat qilishga qiziqtirish, san'atga va sportga jalb etish uchun maktablarda darslardan keyin alohida qiziqarli to'garaklar yaratiladi.

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning Brayl alifbosini, harflarni, nutq va og'zaki ko'nikmalarni o'rganishi uchun sharoit yaratadi va rivojlantirib turadi.

Nogironligi bo'lgan bolalar uchun Inklyuziv ta'lim

Qadrli bolalar, inklyuziv ta'lim bu – nogironligi bo'lgan bolalarga alohida sharoit yaratib ta'lim berish hisoblanadi. Bu ularga qolgan bollar bilan bir xil ta'lim berishni va teng imkoniyatlarni ta'minlaydi.

Shuning uchun eshitishida va gapirishida nogironligi bor, aqliy rivojlanishida nogironligi bor, jismoniy rivojlanishida nogironligi bor, ko'rishida nogironligi bor bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim sharoiti yaratiladi.

MISOL UCHUN:



Qulog'i eshitolmaydigan va gapirishda tili kelishmaydigan bolalarga ta'lim berishda ularning eshitishiga va gapirishiga yordamlashadigan asboblari (apparatlar) yordamida ta'lim beriladi.



Aqliy rivojlanishi boshqa bolalarga va yoshiga nisbatan sal pastroq bolalarga ulaning tushunishi oson bo'lishi uchun darslar sekinroq va maydalab dona-dona qilib o'qitiladi.



O'zi mustaqil harakatlana olmaydigan yura olmaydigan va jismoniy rivojlani-shida nogironligi bor bolalarga ularning harakatlanishiga yordamlashib ular qulay joylashib olgandan keyin dars beriladi.



Ko'ra olmaydigan yoki ko'rishida kam-chiliklari bor bolalarga ularning o'qishi va yozishi uchun kerak bo'ladigan kitob va daftarlardan foydalanib, ularning tushunishiga oson qilib ta'lim beriladi.

Qadrlı bolalar, alohida-alohida o'qıtısh va sharoit yaratısh deganda, ularning o'qıshı uchun kerak bo'ladıgan barcha keraklı narsalarnı ular uchun olib berısh va foydalanıshı tushunıladı.



Nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olishi uchun imtiyozlar

Qadrli bolalar, **2 – 7 yosh** orasida nogironligi bor bolalarning qanday ta'lim va tarbiya olishlarini bilasizmi?

Bunday bolalar bog'chalarda **alohida guruhlarda** o'qitiladi.

Va Bunday guruhdagi bolalarning ota onalaridan bog'cha uchun pul olinmaydi.



Nogironligi bo'lgan bolalarning alohida ro'yxati bor va bu ro'yxatni **Lex.uz** saytidan topishingiz mumkin.



Shu bilan birgalikda, agarda bolada **jismoniy, aqliy, sensor** yoki **ruhiy rivojlanishi sal past** bo'lsa yoki uzoq vaqt davolanishi kerak bo'lsa, u bola o'zining uyida alohida ta'lim olishi mumkin.



Uyida yakka tartibda ta'lim olsa bo'ladigan kasalliklar ro'yxati va u haqidagi nizom bilan **Lex.uz** sayti orqali tanish mumkin




Nogironligi bo'lgan bolalarning maktablarda ta'lim olishi haqida gaplashamiz. Nogironligi bo'lgan bolalar ixtisoslashtirilgan maktablarga **7 yoshga** to'ladigan yilda qabul qilinadi, tayyorlov guruhlariga esa **6 yoshdan** qabul qilinadi.



“NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA”GI PREZIDENT QARORIGA KO'RA,

oliy ta'lim muassasalariga (Universitet va institutlarga) o'qishga topshirayotgan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ma'lumotlar ularga qulay shaklda bo'lishi uchun **videoroliklar surdotarjima** yoki **subtitrlar** bilan namoyish etiladi.



Universitet va institutlarga o‘qishni xohlovchi nogironligi bo‘lgan bolalarga o‘zlari hujjat topshirayotgan soha haqida ularga tushunarli shaklda **videoroliklar surdotarjima** yoki **subtitrlar orqali** ma’lumotlar beriladi.



Ushbu qaror bilan quyidagi havola orqali Lex.uz saytida tanishish mumkin.



Hurmatli bolalar, nogironligi bo‘lganlarning oliy ta’limda ta’lim olishi haqida gaplashamiz. Universitet va institutlarga o‘qishga topshirayotgan nogironligi bo‘lgan abituriyentlardan test sinovi uchun olinadigan to‘lov undirilmaydi.

Agarda nogironligi bo‘lgan bolalar maktabni bitirib, institut va universitetlarda o‘qishni xohlashsa, o‘zlari xohlagan institut va universitetlarda ular uchun qo‘shimcha o‘rin ajratilib, grantda o‘qishlariga imkon beriladi ya’ni tekin o‘qish imkoniyati beriladi.





+50%

I va II guruh nogironligi bo'lgan va to'lov-kontrakt asosida ta'lim oluvchi talabalarga **stipendiya davlat byudjetdan ajratiladi.**

I va II guruh nogironligi bo'lgan talabalarga **50 foiz miqdorda oshirilgan stipendiya beriladi.**



Magistraturaga va oliy ta'limdan keyingi ta'limga o'qishga qabul qilishda ko'rish, eshitish va nutqida nogironligi bo'lgan shaxslar tomonidan **xorijiy tilni bilish sertifikatini taqdim etish talab etilmaydi.**

Hurmatli bolalar, ta'lim olayotgan nogironligi bo'lgan talabalarga ta'lim olish vaqtida ularga ko'maklashish uchun birorta odamning birga bo'lishi uchun sharoit yaratib beriladi.

MISOL UCHUN

*nogironligi bo'lgan bolaning narsalarini ko'tarish uchun yoki u binodan bu binoga yetaklab borish uchun unga boshqa bir odamning **hamroh bo'lib yurishiga imkon beriladi.***

Buning uchun nogironligi bo'lgan talaba o'zi ta'lim olayotgan bo'limning boshlig'iga uning yonida yuradigan odamni tanishtirib, u bilan darslarga birga bo'lishi haqida xabar berishi kerak.

Nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olishiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik

Bilasizmi qonunchiligimizda nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olishini himoya qilishga oid juda ham ko'plab qonun va qoidalar qabul qilingan. Mana shu qonun va qoidalar yordamida bolalarning ta'lim olish huquqi kafolatlangan.

Qadrli bolalar, agarda kimdir bolalarning ta'lim olishiga to'sqinlik qilsa, ular uchun O'zbekiston qonunchiligida alohida jazo bor. Misol uchun, nogironligi bo'lgan bolalarni o'qitmasa yoki ota-onasi bog'cha, maktab, kollej, litseyda ta'limi olishiga ruxsat bermasa O'zbekiston qonunini buzgan bo'ladi va ular quyidagicha jazoga tortiladi.



MA'MURIY JAVOGBARLIK TO'G'RISIDAGI KODEKSNING 47-MODDASIGA KO'RA,

bolalarning ta'lim olishiga to'sqinlik qilgan odam



3 million 750 ming so'mdan 5 million 625 ming so'mgacha pul **jarima** to'lashi mumkin.

Agarda o'sha odam 1 yil ichida yana takroran bolaning ta'lim olishiga to'sqinlik qilsa,



5 million 625 ming so'mdan 9 million 375 ming so'mgacha jarimaga tortilishiyoki **15 kun qamoqqa** olinishi mumkin.

Nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqi buzilganda qayerga murojaat qilishlari kerak

Qadrlı bolalar, nogironligi bo'lgan bolalarning davlat organlariga, tashkilotlariga murojaat qilish huquqi bor.

Nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqlarini ularning ota-onalari, bog'chalardagi, maktablardagi, kollej va litseylardagi, oliy ta'lim muassasalaridagi direktorlar, o'qituvchilar va boshqalar tomonidan buzilishi mumkin. Va bunday holatlarda, bolalar to'g'ridan-to'g'ri yoki ota-onasi orqali murojaat qilishlari mumkin.

MISOL UCHUN











bolalarning o'qishiga to'sqinlik qilayotgan ota-onalarning, yoki o'qish joylaridagi direktorlar, o'qituvchilar va tarbiyalovchilarning bolalarni o'qitishida urishi, kaltaklashi, qo'rqitishi bo'yicha quyidagi ro'yxatda berilgan joylarga aytish kerak.



Lekin, yodda tuting, siz sud organlariga **18 yoshdan boshlab** murojaat qilishingiz mumkin. Ammo, qonunga binoan, siz davlat organlari, muassasalariga va u yerda ishlaydigan shaxslarga yoki ushbu joylarga **yoshingizdan qat'iy nazar** murojaat qilishingiz mumkin.



Ular:

-   Mahalladagi ichki ishlar organi xodimiga;
-   Bolalar masalalari bo'yicha tuman (shahar) komissiyalariga;
-   Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining tuman bo'limi va viloyat boshqarmasi;
-   Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga (+998 71) 207-03-43;
-   Bola huquqlari bo'yicha vakilga (Bolalar ombudsmeni) (+998 71) 259-74-12 raqami orqali bog'lanish mumkin.

O'zingizni huquqlaringiz haqida to'liq ma'lumotni pastdagi havolalar orqali topishingiz mumkin

- ⊙ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- ⊙ “Bola huquqlari to'g'risida”gi Konvensiya;
- ⊙ “Nogironlar huquqlari to'g'risida”gi Konvensiya;
- ⊙ “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi Qonun;
- ⊙ “Ta'lim to'g'risida”gi qonun;
- ⊙ O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi;

✓ “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Qaroriga

✓ “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va maktab-internatlardagi bolalar ta‘minotiga haq to‘lash tartibi to‘g‘risidagi” nizam

✓ “Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta‘lim berish tartibi to‘g‘risida”gi nizam

Qaydlar uchun

NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALARNING TA'LIM OLIISH HUQUQI

Tuzuvchi:

Muharrir:

Dizayner: **J. G'ofurov**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Telefonlar: 71-233-28-18, 71-280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Bosishga ruxsat etildi 25.09.2024-yil.

Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. "Calibri" garniturasida.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i **.

Nashriyot hisob tabog'i 0,59. Adadi *** nusxa.

***-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.